

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

XAMRAYEV ASQAR XASANOVICH

**KARPSIMON (*CYPRENIDAE*) BALIQLAR LIGULYOZI VA
ZARARLANGAN BALIQLARNING VETERINARIYA-SANITARIYA
EKSPERTIZASI**

**03.00.06 - Zoologiya (veterinariya fanlari),
16.00.04 - Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Xamrayev Asqar Xasanovich

Karpsimon (*cyprénidae*) baliqlar ligulyozi va zararlangan baliqlarning
veterinariya-sanitariya ekspertizasi..... 3

Хамраев Аскар Хасанович

Лигулез карповых (*cyprénidae*) рыб и ветеринарно-санитарная
экспертиза зараженных рыб..... 21

Khamrayev Asqar Khasanovich

Carp (*cyprinidae*) fish ligulosis and veterinary-sanitary examination of
affected fish..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

XAMRAYEV ASQAR XASANOVICH

**KARPSIMON (*CYPRENIDAE*) BALIQLAR LIGULYOZI VA
ZARARLANGAN BALIQLARNING VETERINARIYA-SANITARIYA
EKSPERTIZASI**

**03.00.06 - Zoologiya (veterinariya fanlari),
16.00.04 - Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/V68 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Daminov Asadullo Suvonovich
veterinariya fanlari doktori, professor
Ibragimov Furkat Buriyevich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Niyazov Hakim Baqoyevich
veterinariya fanlari doktori, professor
Isayev Jasur Muzaffarovich
veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti huziridagi
L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya,
yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «6» 09 soat «10⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14343 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «02» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «02» 08 dagi № 1 - raqamli reysr bayonnomasi)



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
biol.f.d., professor

S.B.Eshburiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining ko'payib borishiga mos ravishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini ovqatlanish ratsioni xilma - xilligini raqobatbardosh ekologik sof oziq-ovqat mahsulotlari bilan oshirib borishga a'lohida e'tibor qaratilmoqda. Baliq mahsulotlari inson salomatligi uchun zarur bo'ladigan to'liq qiymatli oqsillar, yog'lar, vitaminlar va makro va mikroelementlarga boy bo'lishi bilan boshqa turdagi hayvonot mahsulotlaridan ustun turadi. Baliqchilikni innovatsion texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish, yuqori sifatli mahsulot olish uchun asosiy to'siqlardan bo'lgan baliqlarning invazion va infeksiyon kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, ular oqibatida baliqlarning o'sishdan qolishi, vaznining kamayishi, baliq go'shtining ta'm sifatlari, tovar, oziq-ovqat xususiyatlari va sanitariya-gigiyena ko'rsatkichlarining umumiy yomonlashuvi hamda iste'molga yaroqsiz holatga olib kelishi mumkin¹.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari - Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliyada aholi jon boshiga bir yilda iste'mol qilinadigan baliq go'shti o'rtacha 25-45 kg ni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha bu raqam 22 kg dir. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining xulosasiga ko'ra, har bir inson bir yilda o'rtacha 12-16 kg baliq go'shti iste'mol qilishi lozim. Insonlarning hayvonot dunyosi hisobiga qabul qiladigan oqsillarning 18-20 foizi suvda yashovchi organizmlarga, asosan, baliqlar hisobiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, baliq mahsulotlari yosh bolalarning aqliy rivojlanishi uchun shuningdek, kasalliklarga qarshi chidamliligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu boisdan baliqlarning liguliyoz bilan zararanish darajasini aniqlash, qarshi kurashish, zararlangan baliq go'shtini veterinariya sanitariya jihatdan iste'molga yaroqliligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan, sifatli baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha bir qancha dasturiy chora-tadbirlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan dasturda Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda baliq yetishtirish hajmini 400 ming tonnadan 1 million tonnaga oshirish, sun'iy baliqchilik suv havzalari sharoitida qimmatbaho baliqlar (forel, losos, osyotr, tilyapiya va boshqalar) yetishtirishning umumiy hajmini 2 foizdan 10 foizga yetkazish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bugungi kunda ushbu vazifalar ijrosini o'z vaqtida sifatli bajarish borasida mamlakatimiz hududidagi mavjud tabiiy va sun'iy baliqchilik suv havzalarida banitrovkalash, baliqlarning gelmintozlar bilan zararanish darajasini aniqlash,

¹ Мишанин Ю.Ф. Ихтиопатология и ветеринарно-санитарная экспертиза рыбы. / Ю.Ф. Мишанин // - СПб.: Лань - 2012. - 560 с.

mahsulot sifatini veterinariya sanitariya ekspertizasi bo'yicha monitoring olib borish zaruriyati mavjud.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»² farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 13 yanvardagi PQ-83-son «Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi, 2023 yil 18 avgustdagi PQ - 281-son «Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Baliqlarda parazitlar kasalliklarining tarqalishi, oldini olish, qarshi kurash choralari va zararlangan baliqlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi jihatidan baholash bo'yicha xorij olimlaridan A.J.Gavrilov, T.O.Mashnikova, R.Sh.Tayguzin, T.I.Dyachuk, M.N.Dubinina, F.J.Logan, A.E.Joxov, L.Hopfner M.D.Novak, N.I.Silkina V.S.Osyotrova, V.A.Gerasimchik, Yu.F. Mishaninlar, O'zbekiston olimlaridan S.O.Osmanov, S.B.Karimov, E.B.Shakarbaev, F.D.Akramova, F.E.Safarova, P.S.Haqberdiev, A.S.Daminov, F.E. Qurbonov va boshqalar tomonidan baliqlarda uchraydigan parazitlar kasalliklarning biologiyasi, parazitofaunasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlariga bag'ishlangan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo, Samarqand viloyati sharoitida Karpsimon (*cyprenidae*) baliqlar ligulyozi va zararlangan baliqlarning veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu sababli, Karpsimon (*cyprenidae*) baliqlar ligulyozida, zararlangan baliqlar go'shtining xavfsizligi, oziqaviy, energetik, biologik qiymati va veterinariya-sanitariya ekspertizasi jihatidan baholash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarimiz bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi baliqchilik xo'jaliklari bilan «Baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilgan baliqlarning veterinariya - sanitariya ekspertizasi va uning sifat darajasini oshirish» (2021-2023 yy.) mavzusidagi hamkorlik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatining ayrim suv havzalaridagi karpsimon baliqlar ligulyozining epizootologik holatini aniqlash, zararlangan baliqlarning sifat ko'rsatkichlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi jihatidan baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi baliqchilik xo'jaliklarida baliqlar ligulyozining epizootologik holatini aniqlash;

baliqlar ligulyozining mavsumiy dinamikasi, invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligini tahlil qilish;

ligulyozning baliqlar biologik ko'rsatkichlariga (tana uzunlik o'lchamlari, massasi) va baliqlarning rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtining biokimyoviy ko'rsatkichlari asosida iste'molga yaroqlilik sifatini aniqlash;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtining kimyoviy tarkibi biologik va energetik qiymatini aniqlash;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtini mikroblar bilan zararlanish darajasi aniqlash;

ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyatining ayrim sun'iy suv havzalarida yetishtirilayotgan sog'lom va ligulyoz bilan tabiiy zararlangan karpsimon baliqlar hamda ularning sestodalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, sog'lom va ligulyoz bilan tabiiy zararlangan baliqlar, ulardan olingan go'shtining iste'molga yaroqlilik sifati, xavfsizligini veterinariya sanitariya jihatdan taqqoslab tekshirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda organoleptik, patologoanatomik, parazitologik; fizik-kimyoviy, biokimyoviy, bakteriologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining tadqiqotlar olib borilgan xo'jaliklarida baliqlar ligulyozining invaziya ekstensivligi Kattaqo'rg'on tumanida o'rtacha 39,1 %, Oqdaryo tumanida 17,5 %, Pastdarg'om tumanida 15,8 %, Urgut tumanida 12,9 % ni, mavsumiy dinamikasi bahor faslida 33,3 % ni, kuz faslida bu ko'rsatkich 27,6% ni tashkil etishi aniqlangan;

ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtini organoleptik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy hamda mikrobiologik usullarda veterinariya-sanitariya ekspertiza

qilish orqali ularni iste'molga yaroqliligini aniqlash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan;

zararlangan baliqlardan olingan jabra ekstrakti perioksidaza reaksiyasi natijasida rangining ko'k-moviy rang bermaganligi, balki to'g'ridan-to'g'ri jigarrangga aylanganligi peroksidaza fermenti faolligining pasayishiga bog'liq ekanligi eksperimental tadqiqotlarda ochib berilgan;

baliq go'shtining veterinariya sanitariya ekspertizasi ligulyoz bilan zararlanishda sog'lomga nisbatan aminokislotalar miqdorini 18,73 % ga, 100 g go'shtining energiya qiymati 39,6 kkal ga pastligi, mikrobiologik ko'rsatkichlari ruxsat etilgan me'yordan 10,2 martaga oshib ketishi bilan xarakterlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

baliqlar ligulyozining mavsumiy dinamikasi, invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi tahlil qilingan;

baliqlar ligulyozida ko'z olmasining cho'kishi, jabrasining xira shilliq modda bilan qoplanganligi, yoqimsiz hidli bo'lishi, tangachalar yuzasining dag'al, yaltiroqligi past, oson tortib olinishi, qorin sohasi shishganligi hamda ichki organlarning atrofiyasi aniqlangan;

zararlangan baliqlar go'shtidagi pH qiymatni aniqlash bilan baliq go'shtining sifatini nazorat qilish va iste'mol uchun xavfsizligini baholashda muhim ko'rsatkich ekanligi ilmiy asoslangan;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtining kimyoviy tarkibi biologik va energetik qiymatining o'zgarishi tahlil qilingan;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtida mikroblarning uchrash darajasi aniqlangan;

Ligula intestinalis bilan zararlangan baliq go'shtining oziq-ovqatlik sifati va xavfsizligiga veterinariya-sanitariya jihatidan baho berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tekshirishlarda zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, keng ko'lamda yig'ilgan materiallar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, olingan ma'lumotlar zamonaviy statistik dasturlar asosida tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan chuqur ilmiy tahlil etilganligi, olingan natijalarning yetakchi nashrlarda chop etilganligi hamda amaliy natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi, ilmiy ishlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki ligulyozning mavsumiy dinamikasi tahlil qilinganligi, ligulyoz bilan zararlangan baliqlarning tanasida biokimyoviy o'zgarishlar kuzatilishi natijasida baliq go'shtining biologik, ozuqaviy, energetik qiymatining pasayishi hamda patologoanatomik, fizika-kimyoviy va bakteriologik o'zgarishlaridan kelib chiqib, zararlangan baliqlar go'shtining sifati va xavfsizligini veterinariya-sanitariya jihatdan baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati baliqlar go'shtining sifati va xavfsizligi ob'ektiv baholanganligi, ichak tayoqchalari, stafilokokk va salmonellalarning uchrash darajasi aniqlanganligi, go'sht pH qiymatlarining

o'zgarishiga qarab veterinariya sanitariya jihatdan baholash usuli takomillashtirilganligi, baliqlarni ligulyoz bilan zararlanish darajasiga qarab oziq-ovqat maqsadlarida foydalanish bo'yicha ishlab chiqarishga ilmiy asoslangan tavsiyalar berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Karpsimon (cyprenidae) baliqlar ligulyozi va zararlangan baliqlarning veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“Karpsimon (cyprenidae) baliqlar ligulyozi va zararlangan baliqlar go'shtining veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha” tavsiyanoma ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 20 dekabrda №02/23-732-son ma'lumotnomasi). Natijada baliqlarning ligulyoz bilan zararlanish darajasi va invaziya intensivligini aniqlash hamda baliq go'shtini veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqliligini baholashga erishilgan;

ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtini organoleptik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy hamda mikrobiologik usullarda veterinariya-sanitariya ekspertiza qilish orqali ularni iste'molga yaroqliligini aniqlashga asoslangan usul ilmiy jihatdan asoslangan va hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, Urgut tumanidagi “Urgut Qoratepa baliqlari”, Oqdaryo tumanidagi “G'ozixonov Dilmurodxon” baliqchilik fermer xo'jaliklari faoliyatiga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 20 dekabrda №02/23-732-son ma'lumotnomasi). Ushbu usullarni qo'llash orqali ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtining pH ko'rsatkichi, peroksidaza faolligi, to'yimliligi, mikroblar bilan zararlanish darajasini aniqlash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, umumiy 5 ta jumladan, 2 ta Respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 2 ta tavsiyanoma tayyorlangan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot

ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Adabiyot ma'lumotlarining tahlili»** deb nomlangan birinchi bob to'rt qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Baliq sestodozlarining umumiy tavsifi va epizootologiyasi» deb nomlangan qismida baliq sestodozlarining umumiy tavsifi va tarqalishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «Baliqlar ligulyozining umumiy tavsifi va biologiyasi» deb nomlangan ikkinchi qismida baliqlar ligulyozining umumiy tavsifi va biologik rivojlanishi, patogenezi va kechish xususiyatlari keltirilgan. «Baliq gelmintlarining rivojlanish bosqichlari» deb nomlangan uchinchi qismida baliq gelmintlarining asosan *Ligula intestinalis*ning rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi malumotlar keltirilgan. «Karpsimon baliqlar ligulyozida zararlangan baliqlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi» deb nomlangan to'rtinchi qismida zararlangan baliqlar go'shtining veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.


Dissertatsiyaning **«Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va usullari, tadqiqot olib borilgan hududlarning tavsifi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar Samarqand viloyatining xususan, Kattaqo'rg'on tumanidagi "Kattaqo'rg'on suv ombori" hamda "Otabek Dustov", Pstdarg'om tumanidagi "Xusniddin oila market", Oqdaryo tumanidagi "Ozodbek Ibragimov", Urgut tumanidagi "Qoratepa suv ombori" hamda "Urgut Qoratepa baliqlari" baliqchilik xo'jaliklaridagi karpsimon baliqlar oilasiga mansub sazan, chipor do'ngpeshona va kumush tovon (karas) baliqlarida olib borildi.

Ilmiy-tadqiqotlarning eksperimental qismi 2020-2023 yillar mobaynida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Veterinariya-sanitariya ekspertizasi", "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish", "Parranda baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari", "Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya", "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya", kafedralari laboratoriyalarida, shuningdek O'RFAA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutining laboratoriyasida bajarildi.

Samarqand viloyatining baliqchilik fermer xo'jaliklari suv havzalaridagi baliqlar orasida *Ligula intestinales* ning tarqalishi, kasallikning rivojlanish xususiyatlari va klinik belgilari hamda ushbu parazit tomonidan qo'zg'atiladigan kasallikning oqibatlarini o'rganish maqsadida bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan sog'lom va tabiiy kasallikka chalingan baliqlarda klinik, patologoanatomik, parazitologik, organoleptik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik usullar orqali tekshirishlar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **«Ligulyozning tarqalishi hamda kasallik qo'zg'atuvchisining baliqlar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish natijalari»**

nomli uchinchi bobida Samarqand viloyatining ayrim suv havzalarida baliqlar ligulyozining tarqalishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.



1-rasm. Kattaqo'rg'on va Oqdaryo tumanlarida baliqlar ligulyozini tarqalish darajasi, (%).

Kattaqo'rg'on hamda Oq daryo tumanlaridagi baliqchilik suv havzalaridan tutilgan hamda ligulyozga gumon qilingan sazan, chipor do'ngpeshona va kumush tovon (karas) turiga oid baliqlarni, klinik belgilariga asosan (qorni osilgan, beli ingichka, jabralari anemiya hololatida) 80 dona sazan, 80 dona chipor do'ngpeshona, 80 dona kumush tovon (karas) jami 240 dona baliq olinib tekshirildi. Kattaqo'rg'on tumanidagi suv havzalarda tekshirilgan 240 dona baliqning 94 donasi (39,1%), Oqdaryo tumanidagi suv havzalarda tekshirilgan 240 dona baliqlarning 42 donasi (17,5 %) ligulyoz bilan zararlanganligi aniqlandi (1-rasm.).

1-jadval

Pasdarg'om va Urgut tumanlarida karpsimon baliqlar ligulyozini tarqalish darajasi

Baliq turi	Tekshirilgan baliqlar soni (dona)		Pasdarg'om tumani		Urgut tumani	
	Pasdarg'om tumani	Urgut tumani	Zararlangan (Soni)	%	Zararlangan (Soni)	%
Sazan	80	80	18	22,5	11	13,7
Chupor do'ngpeshona	80	80	9	11,2	7	8,7
Kumush tovon (karas)	80	80	11	13,7	13	16,3
Jami / o'rtacha	240	240	38	15,8	31	12,9

Xuddi shunday Pastdarg'om hamda Urgut tumanlaridagi suv havzalaridan tutilgan 80 dona sazan, 80 dona chipor do'ngpeshona, 80 dona kumush tovon (karas) jami 240 dona baliq olinib tekshirilganda, Pastdarg'om tumanidagi suv

havzalarda tekshirilgan 240 dona baliqning 38 donasi (15,8 %), Urgut tumanidagi suv havzalarda tekshirilgan 240 dona baliqlarning 31 donasi (12,9 %) ligulyoz bilan zararlanganligi aniqlandi (1 - jadval).

Tadqiqot olib borilayotgan xo‘jaliklarda ligulyoz bilan zararlanish darajasi yuqoriligi va kasallikning keng tarqalib borayotganligi, suv havzalarni zoogigienik talablarga javob bermasligi, baliqlar boqilayotgan suv havzalari odamlar nazoratidan uzoqda joylashganligi va baliqxo‘r qushlarni haddan ziyod ko‘pligi bilan izohlanadi.

Baliqlar ligulyozining invaziya intensivligi va invaziya ekstensivligi o‘rganilganda, 70 dona sazan baliqlarining 13 donasida (18,5 %) *Ligula intestinalis* qo‘zg‘atuvchilari o‘rtacha 1-11 nusxadan topildi. 70 dona chupor do‘ngpeshona turidagi baliqlarning 9 donasida (12,8 %) qo‘zg‘atuvchilar o‘rtacha 1-9 nusxani, 70 dona kumush tovon (karas) baliqning 48 donasida (68,6 %) qo‘zg‘atuvchilar o‘rtacha 1-24 nusxani tashkil etdi.

2 - jadval

Ligulyoz bilan zararlangan baliqlarni yil fasllari kesimida tekshirish natijalari

T/r	Baliq turi	Tekshirilgan baliqlar soni (dona)		Bahor			Kuz		
		Bahor	Kuz	Zararlangan (soni)	II	IE %	Zararlangan (soni)	II	IE %
1.	Sazan	70	70	13	1-11	18,5	11	1-9	15,7
2.	Chupor do‘ngpeshona	70	70	9	1-9	12,8	6	1-7	8,5
3.	Kumush tovon (karas)	70	70	48	1-24	68,6	41	1-13	58,5
Jami / o‘rtacha		210	210	70	1-15	33,3	58	1-10	27,6

Baliqlarni ligulyoz qo‘zg‘atuvchisi bilan zararlanish holatini tekshirganimizda, invaziya ekstensivligi bahor faslida o‘rtacha 33,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, kuz faslida bu ko‘rsatkich bir muncha pastroq bo‘lib, 27,6 % ni tashkil etganligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi. Bundan tashqari baliq turlarining zararlanish darajalari ham turlicha ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz davomida 2020-2023 yillarda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om, Oqdaryo, hamda Urgut tumanidagi ligulyozga nosog‘lom xo‘jaliklaridagi bir yillikdan uch yillikkacha bo‘lgan karpsimon baliqlardan sazan, chupor do‘ngpeshona hamda kumushtovon (karas) baliqlarini har biri a’lohida yillar kesimida tekshiruvdan o‘tkazildi.

Baliqlarni ligulyoz bilan zararlanishini yillar kesimida tahlil qilganimizda IE ni eng yo‘qori cho‘qqisi 2022 yilga to‘g‘ri keladi. Eng past ko‘rsatkich 2020 yilga to‘g‘ri keladi. Invaziya intensivligining eng yo‘qori cho‘qqisi esa 2023 yil 1-18 nusxa, eng past ko‘rsatkichi 2020, 2021 yillarga (1-6) to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Dissetatsiyaning «**Sog‘lom va tabiiy zararlangan baliqlarning tana uzunligi va tana og‘irlik o‘lchamlarining o‘zgarishi**» deb nomlangan ushbu qismida baliqlarning tana uzunligi va tana og‘irlik o‘lchamlarining o‘zgarishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ligulyozning klinik belgilari nafaqat baliqlarning xatti-harakatlarini buzilishi va qorin sohasining qattiqlashishi, balki ularning o‘sishi va rivojlanishining o‘zgarishi bilan ham namoyon bo‘ladi. Sog‘lom va zararlangan bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan karpsimon baliqlarida tana uzunlik va og‘irlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi GOST 1368-2003 ga asosan aniqlandi (3 va 4 - jadvallar).

3 - jadval

Sog‘lom va ligulyoz bilan zararlangan baliqlarning tana uzunligining o‘zgarishi.

Yoshi	Sazan (sm)			Kulrang do‘ngpeshona (sm)			Kumushtovon (karas), (sm)		
	Sog‘lom	Zararlangan	O‘rtacha farq	Sog‘lom	Zararlangan	O‘rtacha farq	Sog‘lom	Zararlangan	O‘rtacha farq
Bir yillik	16,5 ±0,9	14,0 ±0,8	2,5 ±0,1	17,5 ±0,6	15,5 ±0,2	2,0 ±0,4	15,6 ±0,1	12,0 ±0,3	3,6 ±0,2
Ikki yillik	25,6 ±0,7	22,5 ±0,9	3,1 ±0,2	26,5 ±0,8	24,0 ±0,4	2,5 ±0,4	24,2 ±0,4	16,9 ±0,3	5,3 ±0,1
Uch yillik	30,0 ±0,8	26,0 ±0,3	4,0 ±0,5	31,6 ±0,4	28,5 ±0,6	3,1 ±0,2	27,2 ±0,1	20,0 ±0,6	7,2 ±0,5
Umumiy o‘rtacha	24,0 ±0,8	20,08 ±0,6	3,92 ±0,2	25,2 ±0,6	22,7 ±0,3	2,5 ±0,3	22,3 ±0,2	16,3 ±0,4	6,0 ±0,2

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sog‘lom va ligulyoz bilan zararlangan bir yillikdan uch yillikgacha bo‘lgan sazan balig‘i tekshirilganda, zararlangan sazan baliqlari sog‘lom baliqlarga nisbatan o‘rtacha $3,92 \pm 0,2$ smga,

kulrang do'ngpeshona balig'ida $2,5 \pm 0,3$ smga hamda kumushtovon (karas) baliqlarida $6,0 \pm 0,2$ smga kaltaligi aniqlandi.

4-jadval

Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliqlar tana og'irligining o'zgarishi (n=10)

Yoshi	Sazan (g)			Kulrang do'ngpeshona (g)			Kumushtovon (karas) (g)		
	Sog'lom	Zararlangan	O'rtacha farq	Sog'lom	Zararlangan	O'rtacha farq	Sog'lom	Zararlangan	O'rtacha farq
Bir yillik	246,0 $\pm 0,6$	189,0 $\pm 0,8$	57,0 $\pm 0,2$	236,3 $\pm 0,2$	178,0 $\pm 0,1$	58,3 $\pm 0,1$	198,0 $\pm 0,8$	143,8 $\pm 0,4$	54,2 $\pm 0,4$
Ikki yillik	552,0 $\pm 0,9$	363,5 $\pm 2,2$	188,5 $\pm 1,3$	496,0 $\pm 0,8$	387,5 $\pm 0,7$	108,5 $\pm 0,1$	365,6 $\pm 0,6$	197,8 $\pm 0,2$	167,8 $\pm 0,4$
Uch yillik	836,0 $\pm 1,2$	527,0 $\pm 2,5$	309 $\pm 1,3$	794,0 $\pm 1,3$	534,6 $\pm 1,1$	259,4 $\pm 0,2$	576,7 $\pm 0,8$	299,6 $\pm 0,6$	277,1 $\pm 0,2$
Umumiy o'rtacha	544,6 $\pm 0,9$	359,8 $\pm 1,8$	184,8 $\pm 0,9$	508,7 $\pm 0,7$	366,7 $\pm 0,6$	142,1 $\pm 0,1$	380,1 $\pm 0,7$	213,7 $\pm 0,4$	166,4 $\pm 0,3$

Berilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan bir yillikdan uch yillikgacha bo'lgan sazan balig'i tekshirilganda, zararlangan baliqlar sog'lom baliqlarga nisbatan o'rtacha $184,8 \pm 0,9$ gramga, kulrang do'ngpeshona balig'ida $142,1 \pm 0,1$ gramga hamda kumushtovon (karas) baliqlarida $166,4 \pm 0,3$ gramga kamligi bilan farq qilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Karpsimon baliqlar ligulyozida zararlangan baliqlar go'shtining veterinariya-sanitariya ekspertizasi» nomli to'rtinchi bobida sog'lom va zararlangan baliq go'shti sifatini aniqlashda organoleptik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, mikrobiologik tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar jarayonida baliq go'shti sifatini organoleptik usulda tekshirilganda quyidagi natijalar olindi.

Sogʻlom va zararlangan baliqlarning organoleptik koʻrsatkichlaridagi oʻzgarishlar

№	Koʻrsatkichlari	Sogʻlom baliq	Zararlangan baliq
1.	Koʻzlarining holati	Qavariq, toza, shaffof shox pardaga ega	Koʻz olmasi choʻkkan, shox parda sezilarli xiralashgan
2.	Jabrasining holati	Yorqin pushti rang, shaffof holatdagi shilliq moddasi bilan qoplangan	Och pushti va xira holatdagi shilliq moddasi bilan qoplangan
3.	Shilimshiq moddasining holati	Shaffof, hidsiz	Loyqali, kulrang-qoramtir, yopishqoq, yoqimsiz hidi bor
4.	Tangachalar holati	Silliq, yaltiroq, tortib olish qiyin	Yuzasi dagʻal, yaltiroqligi past, tortib olish juda oson
5.	Qorin sohasi	Oʻz holatida	Shishgan va qattiqlashgan holatda
6.	Anal teshiklari	Holati oʻzgarmagan, hech qanday oqmalar yoʻq	Shishgan va undan gelmintning bir qismi chiqib turgan holatlari mavjud
7.	Ichki organlari	Aniq ajralib turadi, tabiiy rang va tuzilishga ega	Organlar bir biridan oz miqdorda ajralib turadi, rangi kulrangdan - jigarranggacha
8.	Muskul toʻqimasi	Elastik, suyaklarga mustahkam yopishgan holatda	Yumshoq, suyaklardan ajralishi oson
9.	Goʻsht qaynatmasi	Rangi tiniq, yuzasida yogʻ tomchilari mavjud va xushboʻy hidga ega	Rangi xiralashganligi va yuzasida yogʻ tomchilari juda kamligi, yoqimsiz hid kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Sogʻlom va ligulyoz bilan zararlangan baliqlar goʻshtining fizika-kimyoviy koʻrsatkichlarini oʻzgarishi**» deb nomlangan qismida laboratoriya tekshiruvi natijalari keltirilgan.

L.Intestinalis bilan tabiiy zararlangan va nazorat sifatida sogʻlom baliqlar goʻshtining fizika-kimyoviy koʻrsatkichlar farqini aniqlash maqsadida perioksidaza, bulyonda oqsillarning birlamchi parchalanish mahsulotlarini aniqlash usuli (mis kuporosi bilan reaksiya), vodorod ionlarining konsentratsiyasi (pH) aniqlandi.

Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida perioksidaza fermentining faolligini tekshirganimizda, sog'lom baliqlarda peroksidaza fermentining faolligi yuqori bo'lganligini, aksincha kasallangan baliqlarda bu fermentning faolligi pastligi aniqlandi. Sog'lom baliqdan olingan jabra ekstraktiga benzdinning 0,2 % spirtli eritmasidan 5 tomchi qo'shildi va chayqatildi, so'ngra 2 tomchi 1% vodorod peroksid eritmasi qo'shildi.

Natijada ekstrakt ko'k-moviy rangga aylanib, keyin jigarrangga o'tgani, bu peroksidaza fermenti faolligi yuqoriligini ko'rsatdi. Zararlangan baliqdan olingan jabra ekstrakti ko'k-moviy rang bermasdan, to'g'ridan-to'g'ri jigarrangga aylandi. Bu esa peroksidaza fermentining faolligining pastligini ko'rsatdi.

Qaynatmada oqsillarning birlamchi parchalanish mahsulotlarini aniqlash usulida (mis kuporosi bilan reaksiya) tekshirganimizda, sog'lom baliq go'shtidan tayyorlangan qaynatma biroz xiralashdi (sezilarsiz darajada), zararlangan baliq go'shtidan tayyorlangan qaynatmada esa paxtasimon quyqa hosil bo'ldi. Bu oqsillarning parchalanish mahsulotlari ko'pligini ko'rsatadi.

Baliqlar go'shtida pH qiymati baliq go'shtining sifatini aniqlashda muhim laboratoriya ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sog'lom baliqlar go'shtining pH ko'rsatkichi neytralga yaqin bo'lib, kasallangan baliq go'shtida u ishqoriy tomonga o'zgarib boshlaydi. Baliq go'shtining pH qiymati "PHS-3E" markali pH Meter yordamida aniqlandi.

6 - jadval

Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtida vodorod ionlar konsentratsiyasining o'zgarishi (n=10)

Ko'rsatkich	Sog'lom baliq go'shtida pH	Ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida pH	GOST 7636-85 standarti:
O'rtacha pH	6,31 ± 0.22	7,21± 0.34	6,0-6,5

Sog'lom baliq go'shtining pH qiymati GOST standartlariga mos keladi. Sog'lom baliq go'shti pH qiymati o'rtacha 6,31±0,22 atrofida bo'lsa, ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtning pH qiymati o'rtacha 7,21±0,34 ga teng bu esa zararlanish natijasida organizmda biologik jarayonlarni buzilishi natijasida kelib chiqayotganini ko'rsatadi. Ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida pH darajasi invaziya intensivligining ortib borishi bilan ishqoriy tomonga qarab oshganligi aniqlandi.

Ushbu ma'lumotlar baliq go'shti sifatini nazorat qilishda va iste'mol qilishda xavfsizligini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Yuqori invaziya darajasiga ega baliq go'shtini iste'mol qilmaslikni tavsiya qilamiz.

Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliqlar go'shtining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'zgarishi, bunda namlikning massa ulushi invaziya intensivligining (II) ortishiga qarab baliq go'shtidagi namlikning massa ulushi ortib borishi bilan oqsil va yog'ning massa ulushining kamayib borganligini ko'rishimiz mumkin.

7-jadval

**Invaziya intensivligiga bog‘liq holda ligulyoz bilan zararlangan
baliq go‘shining vodorod ionlar ko‘rsatkichining o‘zgarishi (n=10)**

Ko‘rsatkich	Invaziya intensivligi		
	Past (1-4)	O‘rta (5-10)	Yo‘qori (10 tadan ortiq)
O‘rtacha pH	6,79 ± 0.31	7,05 ± 0.24	7,38 ± 0,32

Buning natijasida baliq go‘shni sifatini pasayganligi, yuqori namlik go‘shning tuzilishini salbiy tomonga o‘zgartirgani kuzatildi.

8-jadval

**Invaziya intensivligiga bog‘liq holda ligulyoz bilan zararlangan baliq
go‘shida biokimyoviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi (n=10)**

№	Ko‘rsatkichlar	II*			Sog‘lom
		Past (1-4)	O‘rta (5-10)	Yo‘qori (10 tadan ortiq)	
1.	Namlikning massa ulushi, %	76,9±0,27	80,2±0,35	86,3±0,17	74,4±0,18
2.	Oqsilning massa ulushi, %	16,5±0,62	15,4±0,45	12,9±0,96	18,8±0,48
3.	Yog‘ning massa ulushi, %	4,1±0,51	2,5±0,34	1,3±0,57	5,3±0,45

***Invaziya intensivligi**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan baliq turlarining muskul to‘qimalari oqsillari tarkibida barcha muhim aminokislotalar topilgan. Shu bilan birga, ligulyoz bilan zararlangan baliq go‘shni tarkibida aminokislotalar miqdori sog‘lom baliqlar go‘shiga nisbatan sezilarli darajada kamligi aniqlandi, bu esa baliq go‘shining ozuqaviy qiymati pasayishining asosiy belgisidir *Ligula intestinalis* bilan zararlangan baliqlar go‘shida o‘tkazilgan tadqiqotlarda baliqlar go‘shidagi erkin aminokislotalarning konsentratsiyasi sog‘lom baliqlar go‘shiga nisbatan 18,73 % ga kamayganligi aniqlandi.


Ligula intestinalis bilan zararlangan baliqlar go‘shidan olingan ekstraktdagi barcha erkin aminokislotalar orasida maksimal foiz konsentratsiyasi gistidin (29,28 %), sistein (26,47 %), leysin (26,11 %), valin (24,97 %), asparagin k-tasi (24,47 %), izoleysin (23,71 %) aminokislotalarida kuzatilgan bo‘lsa, minimal foiz konsentratsiyasi esa - serin (10,39%), prolin (6,95 %), glitsin (6,83 %), metionin (5,46 %) aminokislotalarida kuzatildi. Umumiy farq ligulyoz bilan zararlangan baliq go‘shida o‘rin almashinmaydigan aminokislotalarning jami miqdori 23,18 mg/g ni tashkil etdi.

Sog‘lom baliq go‘shida o‘rin almashinmaydigan aminokislotalarning jami miqdori 33,75 mg/g bo‘lib, bu ligulyoz bilan zararlangan baliq go‘shiga nisbatan 31,69 % ga ortiq (9-jadval).

**Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida
aminokislota tarkibining o'zgarishi (mg/g)**

№	Aminokislota nomi	Zararlangan baliq go'shti	Sog'lom baliq go'shti	Umumiy farq, %
1.	Asparagin k-ta	1,61	2,13	24,47
2.	Glutamin k-ta	1,50	1,79	16,42
3.	Serin	2,00	2,23	10,39
4.	Glitsin	2,89	3,10	6,83
5.	Asparagin	1,74	2,12	17,97
6.	Glutamin	1,03	1,24	17,31
7.	Sistein	1,10	1,50	26,47
8.	Treonin	0,88	1,02	14,21
9.	Argenin	4,02	5,10	21,28
10.	Alanin	0,16	0,21	23,69
11.	Prolin	0,56	0,60	6,95
12.	Tirozin	1,29	1,66	22,35
13.	Valin	2,25	3,00	24,97
14.	Metionin	3,29	3,48	5,46
15.	Gistidin	0,54	0,77	29,28
16.	Izoleysin	1,18	1,54	23,71
17.	Leysin	3,29	4,45	26,11
18.	Triptofan	0,97	1,13	13,75
19.	Fenilalanin	4,00	5,20	23,05
20.	Lizin	3,19	3,83	16,81
Jami		37,47	46,11	18,73

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, baliqlarning bu kasallik bilan zararlanishi baliq go'shtining ozuqaviylik va biologik qiymatini sezilarli darajada pasaytiradi.



**2-Rasm. Sog'lom va ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida
energiya qiymatining o'zgarishi (100 g)**

Baliq go'shtining energiya qiymatini hisoblashda nazariy usuldan foydalanildi. Baliqlar ligulyozida go'shtning energetik qiymatining o'zgarishi *L.intestinales* bilan zararlangan baliqlarda invaziya intensivligining ortishi bilan bog'liq. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ligulyoz bilan zararlangan baliqlarning 100 g go'shtida energiya qiymati nazorat guruhidagi sog'lom baliqlar go'shtiga nisbatan 39,6 kkal ga yoki 165,6864 Kj ga pastligi aniqlandi.

Baliq go'shti xavfsizligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri standartlashtirilgan mikroorganizmlarning tarkibidir. Ayniqsa oziq-ovqat toksikoinfeksiyasini chaqiruvchi bakteriyalar turini aniqlash nihoyatda muhim hisoblanadi. Yangi tutilgan sog'lom baliqlarning mushak to'qimasi steril hisoblanadi, ammo sestodozlar bilan zararlangan baliqlarda rivojlanayotgan mikroblar bu to'qimalarning orasiga kirib, uning parchalanishiga olib keladi.

Oziq-ovqat toksikoinfeksiyalarining asosiy sababi salmonellyozlar hisoblanib, ular ko'p holatlarda mustaqil kasallik bo'lmasdan, birorta mavjud patologik jarayon vaqtida paydo bo'ladi. Buni hisobga olgan holda biz ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shti to'qimalarida salmonellalarning tarqalishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi (10-jadval).

10-jadval.

**Karpsimon baliqlar ligulyozida baliq go'shtining
mikrobiologik xavfsizligi ko'rsatkichlari.**

Ko'rsatkichlar nomi	<i>L.intestinalis</i> bilan zararlangan Kumush tovon (karas) balig'i	Sog'lom Kumush tovon (karas) balig'i	«Uzstandart MTR.015-2020»
Mikroblarning umumiy soni* (MAFAMS)	10,2x10 ⁵	5,5x10 ³	1 x10 ⁵
E.coli guruhining bakteriyalari	4,2 x10 ¹	1 x10 ¹	0,01 g ga ruxsat berilmagan
Stafilokok	topilmadi	topilmadi	0,01 g ga ruxsat berilmagan
Salmonella	topilmadi	topilmadi	25 g ga ruxsat berilmagan

***Mikroblarning umumiy soni** - bu 1 g mahsulotdagi mezofil aerob va fakultativ anaerob mikroorganizmlar (MAFAMS) soni.

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, sog'lom baliq go'shtining mikrobiologik ko'rsatkichlari ruxsat etilgan maksimal me'yordan oshmagan va ligulyoz bilan kasallangan baliq go'shtida MAFAMS (KHB/1g) 10,2 marta oshib ketgan. Baliq to'qimalarida stafilokok va salmonellalar esa topilmadi. Baliqlar *L.intestinalis* bilan zararlanishi oqibatida immunitetning pasayishi tufayli har xil turdagi mikroorganizmlar bilan ko'proq zararlanganligi aniqlandi. Bu esa ligula bilan zararlangan baliqlarda immunitetning zaiflashuvi hisobiga bakteriyalarning ko'payishiga olib keladi va baliq go'shtining iste'mol xususiyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Bunday baliqlarni iste'mol qilish inson salomatligi uchun xavfli hisoblanadi.

XULOSALAR

1. Samarqand viloyatining tadqiqotlar olib borilgan xo'jaliklarida baliqlar ligulyozining invaziya ekstensivligi Kattaqo'rg'on tumanida o'rtacha 39,1 %, Oqdaryo tumanida 17,5 %, Pastdarg'om tumanida 15,8 %, Urgut tumanida 12,9 % ni, mavsumiy dinamikasi bahor faslida 33,3 % ni, kuz faslida bu ko'rsatkich 27,6 % ni tashkil etishi aniqlandi.

2. Baliqlarning yoshi va turiga nisbatan ligulyoz bilan zararlanishi tahlil qilinganida eng yo'qori ko'rsatkich uch yoshli kumushtovon (karas) turidagi baliqlarda kuzatilib, invaziya ekstensivligi o'rtacha 37,1 % ni, invaziya intensivligi esa 1-15 nusxani etishi aniqlandi.

3. Ligulyoz bilan zararlangan sazan baliqlarining tana uzunligi sog'lom baliqlarga nisbatan o'rtacha $3,92 \pm 0,2$ smga, kulrang do'ngpeshona balig'ida $2,5 \pm 0,3$ smga hamda kumushtovon (karas) baliqlarida $6,0 \pm 0,2$ smga qisqaligi aniqlandi.

4. Ligulyoz bilan zararlangan turli yoshdagi baliqlarni tana og'irligi sog'lom baliqlar bilan o'zaro taqqoslanganda sazan baliqlarining og'irligi o'rtacha $184,8 \pm 0,9$ gramga, kulrang do'ngpeshona balig'i $142,1 \pm 0,1$ gramga hamda kumushtovon (karas) baliqlarida $166,4 \pm 0,3$ gramga kamligi aniqlandi.

5. *Ligula intestinalis* bilan zararlangan baliqlar go'shtida namlikning massa ulushi ortishi natijasida oqsilning massa ulushi sog'lom baliq go'shtiga nisbatan 5,8 foizga, yog'ning massa ulushi 2,8 foizga kamayganligi aniqlandi.

6. *Ligula intestinalis* bilan zararlangan baliqlar go'shtida erkin aminokislotalarning konsentratsiyasi sog'lom baliqlar go'shtiga nisbatan sezilarli ravishda: asparagin - 24,47 %, glutamin - 16,42 %, gistidin - 29,28 %, serin - 10,39 %, arginin - 21,28 %, glitsin - 6,83 %, treonin - 14,21 %, alanin - 23,69 %, tirozin - 22,35 %, valin - 24,97 %, metionin - 5,46 %, izoleysin - 23,71 %, fenilalanin - 23,05 %, leysin - 26,11 % ga va lizinning - 16,81 % ga kamayganligi hisobiga go'shtning ozuqaviy va biologik qiymati sezilarli darajada pasayganligi aniqlandi.

7. Ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtining energiya qiymati sog'lom baliqlar go'shtiga nisbatan 39,6 kilokalloriyaga pastligi aniqlandi.

8. Ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtida mikroblarning umumiy soni belgilangan me'yorga nisbatan (MAFAMS KHB/1g) 10,2 marta oshishi aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ,
ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

ХАМРАЕВ АСКАР ХАСАНОВИЧ

**ЛИГУЛЕЗ КАРПОВЫХ РЫБ И ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНАЯ
ЭКСПЕРТИЗА ЗАРАЖЕННОЙ РЫБЫ**

**03.00.06 - Зоология (ветеринарные науки), 16.00.04 - Ветеринарная фармакология и
токсикология. Ветеринарная санитария, экология, зоогигиена и
ветеринарно-санитарная экспертиза**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № B2024.1.PhD/V68

Диссертация доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ssuv.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Даминов Асадулло Сувонович
доктор ветеринарных наук, профессор
Ибрагимов Фуркат Буриевич
кандидат ветеринарных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Ниязов Хаким Бакоевич
доктор ветеринарных наук, профессор
Исаев Жасур Музаффарович
доктор философии (PhD) по ветеринарным наукам

Ведущая организация:

Научно-исследовательский институт
Микробиологии, вирусологии, инфекционных
и паразитарных заболеваний имени
Л.М.Исаева при Самаркандском
государственном медицинском университете

Защита состоится «08» 09 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.06/30.12.2019.V.12.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77, Тел./факс: (99866) 234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (зарегистрирована за № 14343) Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77., Тел./факс: (99866) 234-76-86.


Автореферат разослан «02» 09 2025 г.
(протокол рассылки № 1 от «02» 09 2025 г.)





Х.Б.Юнусов
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н,
профессор


С.Б.Эшбурнев
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, д.в.н,
доцент


К.Н.Норбоев
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению учёных
степеней, д.в.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в связи с ростом населения мира, особое внимание уделяется обеспечению продовольственной безопасности, увеличению разнообразия рациона питания населения с помощью экологически чистых и конкурентоспособных продуктов питания. Рыбные продукты, богаты полноценными белками, жирами, витаминами и макро- и микроэлементами которые необходимы для здоровья человека и являются более ценными по сравнению с другими видами животной продукции. Интенсивное развитие рыболовства на основе инновационных технологий, получение высококачественной продукции сталкиваются с такими основными препятствиями, как распространение инвазивных и инфекционных заболеваний рыб, которые могут привести к замедлению роста, снижению веса, ухудшению вкусовых качеств рыбы, товарных и пищевых характеристик, а также санитарно-гигиенических показателей, что может сделать продукт непригодным для потребления¹.

В развитых странах мира - Японии, Западной Европе, Северной Америке, Австралии - среднее потребление рыбы на душу населения в год составляет 25-45 кг. В мире этот показатель составляет 22 кг. Согласно выводам Всемирной организации здравоохранения, каждый человек должен потреблять в среднем 12-16 кг рыбы в год. 18-20 % белков, которые человек получает из животного мира, поступают от организмов живущих в воде, в основном, за счёт рыбы. В развитых странах мира - Японии, Западной Европе, Северной Америке, Австралии - среднее потребление рыбы на душу населения в год составляет 25-45 кг. В мире этот показатель составляет 22 кг. Согласно выводам Всемирной организации здравоохранения, каждый человек должен потреблять в среднем 12-16 кг рыбы в год. 18-20 % белков, которые человек получает из животного мира, поступают от организмов живущих в воде, в основном, за счёт рыбы.

Особенно важное значение рыбные продукты имеют для умственного развития детей, а также для повышения их устойчивости к заболеваниям. Поэтому исследования, направленные на определение степени заражения рыбы лигулезом, борьбу с ним и оценку ветеринарно-санитарной пригодности зараженной рыбы для потребления, являются актуальными.

